



INKLUSIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTAB RAHBARLARINING
BOSHQARUV FAOLIYATIDA ZARUR BO'LGAN
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Ravshanov Hayitboy Shamsiddin o'g'li

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tezis ishida inklyuziv ta'lim sharoitida maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatida zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishning mazmun-mohiyati yoritilgan. Unda rahbarlarning inklyuziv muhitda samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan kasbiy, kommunikativ, psixologik va pedagogik kompetensiyalar tahlil qilingan. Xorijiy tajriba asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maktab rahbari, boshqaruv, kompetensiya, pedagogika.*

Аннотация: *В данной работе раскрыта сущность формирования необходимых компетенций руководителей школ для эффективной управленческой деятельности в условиях инклюзивного образования. Проанализированы профессиональные, коммуникативные и психологические компетенции, а также приведены предложения на основе зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, директор школы, управление, компетенции, педагогика.*

Annotation: *This thesis explores the formation of essential competencies for school leaders in managing inclusive education settings. It analyzes key professional, communicative, and psychological competencies and provides recommendations based on international practices.*

Keywords: *inclusive education, school leader, management, competencies, pedagogy.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida har bir insonning ta'lim olish huquqini to'liq ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan, inklyuziv ta'lim konsepsiyasi o'zining dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Inklusiv ta'lim — bu barcha bolalarning, jumladan imkoniyati cheklanganlarning ham, bir xil muhitda ta'lim olishlarini ta'minlaydigan tizimdir.



Bunday ta'lim tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirishda maktab rahbarlarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Inklusiv ta'lim jarayonida maktab rahbarining roli faqatgina boshqaruv bilan cheklanib qolmay, balki u o'qituvchi, ota-ona va mutaxassislar bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi yetakchi shaxsga aylanadi. Rahbar har bir bola ehtiyojini tushunadigan, pedagogik-psixologik jarayonlarga chuqur yondasha oladigan va ta'lim muhitida insonparvarlik tamoyillarini qaror toptiradigan bo'lishi zarur. Shu bois, maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning pedagogik bilimi, ijtimoiy faolligi, inklyuziv qadriyatlarni anglash darajasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Inklusiv ta'limni samarali tashkil etish uchun rahbarlar maxsus treninglar, kasbiy rivojlanish dasturlari orqali yangi metodlarni o'zlashtirishlari, innovatsion yondashuvlarni o'z amaliyotiga tatbiq eta olishlari zarur. Xususan, xorijiy davlatlar tajribasiga nazar solinsa, Finlyandiya, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda rahbarlar doimiy ravishda malaka oshirish kurslaridan o'tadi, ular uchun inklyuziv liderlikka oid metodik qo'llanmalar ishlab chiqiladi. Bu esa maktabda har bir bola uchun qulay va xavfsiz muhitni yaratishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda muayyan qadamlar tashlanmoqda. Xususan, ta'lim rahbarlari uchun tashkil etilayotgan seminarlarda inklyuzivlikka oid bilimlar berilmoqda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullari o'rgatilmoqda. Biroq mavjud tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonni tizimli yondashuv asosida tashkil etish, nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga erishish zarur. Ayniqsa, har bir maktab rahbarining o'z muassasasida inklyuziv muhitni qanday yaratishi va boshqarishi bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilishi lozim.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida ta'kidlash mumkinki, inklusiv ta'lim sharoitida maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish — bu nafaqat dolzarb, balki zaruriy jarayondir. Maktab rahbarining pedagogik, psixologik, ijtimoiy va innovatsion jihatdan yetuk bo'lishi, u boshqarayotgan ta'lim muassasasining inklyuzivlik darajasini belgilaydi. Shunday ekan, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga doir davlat dasturlari, treninglar, xalqaro hamkorlik loyihalari yanada takomillashtirilishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.
2. Inclusive education: Guidelines for school heads. UNESCO, 2017.
3. Xamidova N. va boshqalar. Inklyusiv ta'lim asoslari. – Toshkent: TDPU, 2022.
4. Финляндияда инклюзив таълимни амалга ошириш тажрибаси. – Helsinki Education Report, 2019.
5. Mahmudov R. Pedagogik menejment asoslari. – Toshkent, 2021.

